

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**RUS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**



**ZAMONAVIY FILOLOGIK TA’LIMNING LINGVISTIK  
VA KULTUROLOGIK ASPEKTLARI: LISONIY VA  
MADANIY MULOQOT**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari  
Samarqand, 2025-yil 26-27-aprel**

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ  
АСПЕКТЫ СОВРЕМЕННОГО ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ: ДИАЛОГ ЯЗЫКОВ И КУЛЬТУР**

**Материалы международной научно-практической конференции  
Самарканд, 26-27 апреля 2025 года**

**“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti  
Samarqand – 2025**

Zamonaviy filologik ta'limning lingvistik va kulturologik aspektlari: lisoniy va madaniy muloqot. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. – 216 bet.

*Mazkur ilmiy maqolalar to'plami Samarqand davlat chet tillar instituti rus filologiyasi kafedrasining fidoyi olimlari ilmiy-pedagogik jamoasi tashabbusi va tashkilotchiligida “Zamonaviy filologik ta'limning lingvistik va kulturologik aspektlari: lisoniy va madaniy muloqot” mavzusidagi nufuzli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan tashkil topgan. Unda sohada e'tirof etilgan taniqli filolog olimlar, yetuk mutaxassislar bilan bir qatorda, sohaga endi qadam qo'yayotgan yosh tadqiqotchilar, magistrant va aspirantlarning dastlabki tadqiqotlariga bag'ishlangan maqolalari, ilmiy xabarlari joy olgan.*

*Ilmiy konferensiya materiallari filolog-mutaxassislar, sohada faoliyat olib borayotgan pedagoglar hamda zamonaviy filologik ta'lim va tadqiqotlar bilan qiziquvchi keng mutaxassislar jamoasiga mo'ljallangan.*

**Tahrir hay'ati:**

Umurova G.H., f.f.d., professor - rais  
Jo'raqulov R.D., f.f.n., professor - kotib  
Eshqobilov A.K., PhD, dotsent - mas'ul muharrir  
Xudoyberdieva D.M., PhD, dotsent - a'zo  
Musinova Z.T. dotsent - a'zo

*Maqolalar mazmuni, ularda keltirilgan dalillar va iqtiboslar sifati hamda originalligi uchun mualliflar shaxsan mas'ul hisoblanishadi.*

## MAQOL VA MATALLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

L.M. Sodiqov, SamDChTI tayanch doktoranti

Ma'lumki, dastlab folklorshunoslar maqol va matallarni o'rganishda tilning bu birliklarini xalq og'zaki ijodining kichik janrlari deb qarashganlar. Maqol va matal - paremiologik birlik(PB)lariga bunday qarash bilan ushbu turdagi til birliklarining lingvistik mohiyatini ko'rib chiqishni o'z ichiga olmaydi, shuning uchun paremiologik birliklarni o'rganishda ularning ko'plab muhim jihatlari olimlar e'tiboridan chetda qolgan.

Lisoniy madaniyatning ijtimoiy bilimlarning fanlararo sohasi sifatida shakllanishi, o'z navbatida, til tavsifida antroposentrik yondashuv doirasida kognitiv tilshunoslik yutuqlariga asoslangan holda til va madaniyatning o'zaro aloqalari nuqtai nazaridan frazeologiyani ilmiy jihatdan tadqiq etish imkonini berdi.

So'nggi yillarda o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlar diqqat markazida, maqol va matallarga millatning madaniy nufuzini til birligi va sintaktik har xil vazifalarni bajara oladigan o'xshash hamda har xil til sathlarida mavhum ma'lumotlarni kodlaydigan matnlar sifatida qarash yotadi [Yaxshiyev 2012, b. 236].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maqol va matallar bir qancha sabablarga ko'ra ilmiy lisoniy tadqiqotlar obyekti sifatida qaraladi.

Paremiologik birliklar ustida ilmiy izlanishlar olib borayotganlar ularning nutq va til oralig'idagi maydonda joylashishini ta'kidlaydilar, chunki ular minimal darajadagi alohida muloqot pozitsiyasini tutib, allaqachon matn sifatida voqealanadi. Ammo ularning takrorlanadigan tabiati va alohida holatda matndan ajralmagan holda qo'llanilmasligi ularni til birliklari deb hisoblashga asos bo'ladi.

Paremiologik birliklarni pragmatik nuqtai nazardan o'rganuvchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ularning "standartlashgan shakli" PBlardagi pragmatik va semantik jihatlarining uyg'unligi bilan izohlanadi. Ularning takrorlanuvchanligi, birinchi navbatda, ular muayyan pragmatik munosabatlar va o'ziga xos tabiatini ifodalashning maxsus shakllari (ogohlantirish, ishortirish, undash va boshqalar) o'z isbotini topgan. Bunday holda, ular lisoniy borliqning xotirada tutishni osonlashtiradigan an'anaviy modelining shakli sifatida yaqqol ko'zga tashlanadi (aforizmlar, iqtiboslar, ertaklar va boshqalar bilan bir qatorda) [Caфapов 2000, 6. 116].

Dunyo tillarining barchasida paremiologik birliklar tarkibida somatizmlar, ya'ni inson tana a'zolarining nomlari odamning tashqi va ichki dunyosini yoritib berish maqsadida milliy mentalitetdan kelib chiqib, ko'pgina tillarning paremiologik fondida somatizimli paremiologik birliklar muhim o'rin tutadi, ular orqali inson, uning tashqi ko'rinishi va xarakteri milliy o'ziga xos xususiyatlarni ifodalovchi qochirim shaklda bayon etiladi. Masalan: "Andere Leute haben auch einen Kopf" (SPWL, 324), "Ein guter Kopf hat hundert Hnde" (SPWL, 324), "Ohne Beine ist schlecht tanzen" (SPWL, 68); "Afting qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama" (O'XM, 57), "Qon bilan kirgan jon bilan chiqar" (O'XM, 198).

Bunday nemis va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklarni o'zaro taqqoslash ularning paremiografiyasi va leksikografiyasini ilmiy o'rganishning o'quv maqsadlari uchun dolzarbligini belgilaydi. Millatga xos bo'lgan, xalqning yuragidan joy olgan paremiologik va frazeologik birliklar tarkibida so'zlar guruhini o'z ichiga olgan muhim tayanch komponentlar ko'p yillar davomida tilshunos tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelgan. Ushbu muammoga qiziqishning alohida ortishi til materiallarini lingvokulturologiya masalalarini tavsiflashga antroposentrik yondashuvning qo'llanish doirasi bilan bog'liq.

Maqol va matallar diskursiv jihatdan mini-matn sifatida an'anaviy ravishda folklorshunoslik tomonidan o'rganilgan. Lekin XX asrning so'ngi choragida maqol va matallar frazeologiyaning alohida turi sifatida paremiologiya doirasida ilmiy jihatdan tadqiq etila boshlandi.

Frazeologik tadqiqotlar bo'yicha dunyo tillaridagi ilk qiyosiy izlanishlar XX asrning so'nggi choragida paydo bo'la boshladi. Bunda genetik jihatdan qardosh bo'lmagan tillar bilan ham chog'ishtirma tadqiqotlar o'tkazila boshlandi. Rus tilshunosi V.V. Pavlov turk tillari fonida

paremiologik fondning qardoshlik jihatini ko'rib chiqadi va ularning qurilishi hamda ma'no jihatdan aloqadorligini aniqlaydi [Павлов 2004, с. 157]. Uning fikriga ko'ra, dunyo tillari paremiologik fondida o'xshash tuzilish va o'xshash mazmun mavjud. Olimning fikriga ko'ra, tuzilish jihatdan ularning ba'zilari bitta kesim markazga ega bo'lgan gap qoliplariga ko'ra tuzilgan, boshqalari esa ikkita (kamdan kam hollarda uchta) kesimlik markazga ega bo'lgan gap shakliga ko'ra qurilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, paremiologik birliklar qurilishiga ko'ra, sodda gaplar, qo'shma gaplar va murakkab gaplarga bo'linadi. Qardosh bo'lmagan tillar frazeologiyasini, shu jumladan, paremiologik birliklarni solishtirib ko'rib uning lisoniy madaniy xususiyatlarini aniqlash uchun muhim xulosalar chiqarish mumkin. Har qanday ikki xalqning, ikki millatning, ikki tilning, olamning lisoniy manzaralari o'rtasida shu tillar madaniyati uchun asosiy tushunchalar bilan bog'liq o'xshashlik va farqlar umumiy qadriyatlar tizimi mavjud.

Tadqiqot maqsdi nemis va o'zbek xalqlarining paremiologik birliklari o'rtasidagi ularning qurilishi va ma'no mazmuni farqlari va o'xshashliklarini aniqlashdir. Mavzu va metodologiya bo'yicha bizning ishimizga nemis va o'zbek tillarida paremiologik birliklarni o'z ichiga olgan A.R.Jo'raqulovning ilmiy tadqiqoti ishi juda yaqin hisoblandi. A.R.Jo'raqulov o'z tadqiqotida paremiologik birliklarni hayvon va o'simliklar nomlari bilan o'zaro qardosh bo'lmagan tillarda qiyosiy o'rganishga harakat qilgan [Jo'raqulov 2024, 25]. Bunday qiyosiy solishtirib o'rganish natijasida nafaqat lingvistik xulosalar, balki mamalakatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim o'rin tutadi. Qardosh bo'lmagan xalqlar tillarida frazeologik va paremiologik birliklarning yoki ularning muqobillarining kelib chiqishi, albatta, shu joydagi mavjud bo'lgan tabiiy sharoit va ularni o'rab turgan narsa-predmet, hayvonot dunyosi, o'simliklar dunyosi hamda shu xalqlarning ijtimoiy hayotiga va ijtimoiy ongiga chambarchas bog'liqdir.

Bundan tashqari umumiy yoki o'xshash tarixiy voqelik diniy tasavvurlar ham semantik va konseptual jihatdan o'xshash paremiologik birliklarni keltirib chiqaradi. Mana shunday bir xil yoki shunga yaqin o'xshashroq frazeologik, paremiologik birliklardan nemis va o'zbek tillaridagi internatsional paremiologik birliklar hosil bo'ladi. Nemis tilini chet tili sifatida o'rganishda, albatta, paremiologik birliklarni o'rganishning o'rni beqiyosdir.

Demak nemis tili paremiologik birliklarini grammatik, semantik, leksik aspektlar nuqtai nazaridan chuqur o'rganilishi talab etiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun manba bazasini tahlil qilish, ya'ni paremiologik birliklar mavjud bo'lgan barcha lug'atlarni o'rganib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarjimashunoslik uchun nemis tilini chet tili o'qitish usullari uchun ham juda muhim. Shunday qilib, tadqiqotda nemis xalqining maqol va matallarini, semantik guruhlarini va ularning markaziy komponentlarini aniqlash, ularni o'zbek tili paremiologik birliklari bilan solishtirib, ularning o'xshash va farqli jihatlarini belgilash nazarda tutilgan. Paremiologik birliklarning tasniflash masalasi har doim ham bir xil hal qilinavermaydi. Bu xildagi til birliklari ham tuzilish nuqtai nazaridan ham anglatgan mavzular nuqtai nazaridan ham markaziy komponentlari jihatdan o'ta xilma xildir, shuning uchun tadqiqotchilar ushbu masalaga turlicha yondashadilar. Paremiologik birliklarni har xil xususiyatlariga qarab umumiy shaklda quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Mavzulashtirilgan paremiologik birliklar
2. Alifbo tartibida tuzilgan paremiologik birliklar
3. Asosiy (markaziy) komponentlar bo'yicha tuzilgan komponentlar
4. Monografik tuzilgan paremiologik birliklar
5. Genitik ravishta tuzilgan paremiologik birliklar

Ushbu klassifikatsiya bo'yicha (tematik) mavzulashtirish prinsipi bo'yicha tuzilgan paremiologik birliklar keng tarqalgan tamoilardan biridir. Shu usul bilan rus tilshunos olim V.I. Dal o'z kitobida 179 tematik guruhni aniqlagan va ularni xalq hayoti sohasini ifodalovchi yiriklashtirilgan mavzularga birlashtirib joylashtirgan. Xuddi shu yo'sinda o'zbek xalq maqollari ham qirqqa yaqin mavzular bo'yicha T.Mirzayev, A.Musoqulov va boshqalar tomonidan tuzib chiqilgan [O'zbek xalq maqollari, 2019]. Shunday qilib, mavzulashtirish klassifikatsiyasi har xil darajadagi tafsilotlarga ega bo'lishi mumkin. Bu ham bo'lsa yanada batafsilroq tasniflarga olib

keladi. Masalan: Yaxshilik va yomonlik, donishmandlik va nodonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, bag'rikenglik va xudbinlik, kengfe'llik va ziqnalik, go'zallik va xunuklik, sog'liq va kasallik, ilmlilik va ilmsizlik va boshqalar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Beyer Horst und Annelies. Sprichwörterlexikon: Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. - 2., unveränderte Auflage. - Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. - 712 S.
2. Jo'raqulov A.R. The use of animal names in the metaphorical view of the world // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. Volume 02, Issue 05, 2024. - P. 24-30.
3. O'zbek xalq maqollari. - Toshkent: Sharq, 2019. - 512 b.
4. Yaxshiyev A.A. Dialogue speech in linguo-didactic interpretation // Filologiya masalalari. - Baku, 2012, № 4. - P. 236-243.
5. Павлов В.В. Сравнительно-сопоставительный анализ структуры и семантики турецких и чувашских пословиц: дис.. канд. филол. наук. - Чебоксары, 2004. - 164 с.